

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

TURDIALIEVA MAHZUNA MUXTARALIEVNA

**KURKA GO'SHTINI KIMYOVIY TARKIBI ASOSIDA TOVARLAR
NOMENKLATURASI BO'YICHA TASNIFLASH VA SERTIFIKATLASH
HAMDA UNI XAVFSIZLIK BILAN O'ZARO BOG'LIQLIGI
MASALALARI**

02.00.09- Tovarlar kimyosi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Andijon — 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD)

Turdialieva Mahzuna Muxtaralievna

Kurka go‘shini kimyoviy tarkibi asosida tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha tasniflash va sertifikatlash hamda uni xavfsizlik bilan o‘zaro bog‘liqligi masalalari3

Турдалиева Махзуна Мухтаралиевна

Вопросы классификации и сертификации мяса индейки по товарной номенклатуре и её взаимосвязь с безопасностью21

Turdialiyeva Mahzuna Muxtaraliyevna

Issues of classification and certification of turkey meat on the nomenclature of goods on the basis of chemical composition and its safety aspects.....39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

TURDIALIEVA MAHZUNA MUXTARALIEVNA

**KURKA GO'SHTINI KIMYOVIY TARKIBI ASOSIDA TOVARLAR
NOMENKLATURASI BO'YICHA TASNIFLASH VA SERTIFIKATLASH
HAMDA UNI XAVFSIZLIK BILAN O'ZARO BOG'LIQLIGI
MASALALARI**

02.00.09- Tovarlar kimyosi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Andijon — 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T5026 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent kimyo-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.adu.uz/) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Hamroqulov Mahmud G'ofurjonovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponenlar:

Isayev Yusupjon Tojimatov
kimyo fanlari doktori, professor
Mo'yidinov Nurillo To'xtarovich
kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat tibbiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 raqamli Ilmiy kengashning «16» 10 2025 yil soat 10⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'chasi, 129. Tel.: (99877) 223-88-30; faks: (99871) 223-84-33; e-mail: abshax@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'chasi, 129. Tel.: (99877) 223-88-30

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «06» 10 kuni tarqatildi.
(2025 yil «02» 06 daqi 10 raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.M.Kirgizov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, k.f.d. (DSc), professor

M.M.Mo'minjonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, k.f.d. (DSc), dotsent

M.M.Xojimatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda jadal sur'atlar bilan o'sib borayotgan aholini oqsilga boy mahsulotlar, jumladan, oziq-ovqat xavfsizligi talablariga javob beradigan, to'liq holatda foydali biogen elementlarni o'zida saqlagan go'sht mahsulotlari bilan yetarli darajada ta'minlash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada, yuqori biologik va oziqaviy qiymatga ega, parhezboq, oqsilga boy kurka go'shti va undan tayyorlangan mahsulotlarni ishlab chiqarishda ularning sifati hamda xavfsizligini ta'minlashga yordam beruvchi samarali texnologiyalarni ishlab chiqishga alohida e'tibor berilmoqda. Shuning uchun ham, kurka go'shti va undan tayyorlangan mahsulotlarning sifat va xavfsizlik mezonlarini ishlab chiqish, muvofiqligini baholash tizimini takomillashtirish, hamda tasniflash muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda qishloq xo'jalik parrandachiliklaridan inson sog'ligi uchun zarur bo'lgan yuqori sifatli, ekologik xavfsiz va tabiiy toza parranda go'shtlarini yetishtirish, ularni sifat va xavfsizlik mezonlariga mos ravishda qayta ishlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, kurka go'shtining kimyoviy tarkibini zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida chuqur aniqlash, ularning sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari hamda iste'mol xossalarini ilmiy jihatdan isbotlash, kurka go'shtini kimyoviy tarkibi va tarkibidagi qo'shimchalar miqdori asosida sinflash va sertifikatlash jarayonlarini ilmiy asoslash, sifat mezonlarini belgilash va muvofiqlikni baholashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda kurka go'shtini kimyoviy tarkibi va tarkibidagi qo'shimcha moddalar asosida O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi (TIF TN)ga muvofiq sinflash va sertifikatlash borasida muayyan ilmiy natijalarga erishilgan. O'zbekiston Respublikasining Taraqqiyot strategiyasida «Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari salohiyatini yanada rivojlantirish, ichki va tashqi bozorga hamda xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni va sertifikatlashtirish tizimlarini joriy etishni ta'minlash»¹ vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda mamlakat iqtisodiyotini va aholi sog'ligini himoyalash, kurka go'shtining sifati va xavfsizlik ko'rsatkichlarini aniqlash borasida tezkor va samarali usullarni joriy etish hamda olingan natijalar asosida, uning TIF TN bo'yicha tegishli kod raqamlarini ishlab chiqishga va sertifikatlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 noyabrdagi «Bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF 5582-son Farmoni, 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to'g'risidagi PF 60-son Farmoni, 2021 yil 14 iyundagi «Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF 60-son "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

to'g'risida»gi PQ-5146-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. "Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini kimyoviy tarkibi asosida TIF TN bo'yicha sinflash va sertifikatlashning ilmiy-metodologik asoslarini yaratish borasida: xorijda Ye.I. Andreeva, M.A. Nikolaeva, A.V. Nesterov, S.V. Baramzin, N.N. Alekseeva, V.E. Novikov va I.P. Chepurnoy kabi olimlar; Mamlakatimizda I.R. Asqarov rahbarligida 02.00.09 – "Tovarlar kimyosi" ixtisosligi bo'yicha ilmiy maktab tashkil etilgan bo'lib, uning vakillari: A.A. Ibragimov, G'.Hamroqulov, K.M. Karimkulov, B.Yo. Abdug'aniev, L.P. Pulatova, N.X. To'xtaboev, Sh.M. Kirgizov, Sh.X. Abdullaev, A. Yulchiev, M.G'. Hamroqulov, R.K. Murzayev va boshqalar ushbu fanning rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar.

Ushbu olimlar tomonidan tovarlar bojxona ekspertizasini o'tkazish orqali ularning kimyoviy tarkibi asosida sinflash va sertifikatlash tamoyillari ishlab chiqilgan. Shuningdek, tovarlarni identifikatsiyalash va bojxona ekspertisasi yordamida, ularning kimyoviy tarkibi asosida aniqlangan TIF TN kod raqamalarini amaliyotga joriy qilish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent kimyo-texnologiya institutining "Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va tovarlarni tasniflash" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kurka go'shtining kimyoviy tarkibi va tarkibidagi qo'shimcha kimyoviy moddalar asosida TIF TN ga muvofiq yangi tovar kodlarini ishlab chiqish hamda mahsulotning sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlariga muvofiq sertifikatlashtirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Ayrim davlatlarda yetishtirilgan kurka go'shti namunalarining kimyoviy tarkibini (namlik, oqsil, yog', uglevod, kul va energetik qiymat) kimyoviy tahlil usullari yordamida aniqlash;

Ayrim davlatlarda yetishtirilgan kurka go'shti namunalarining yog' kislotalari tarkibini gaz xromatografiya usuli bilan aniqlash hamda ustunlik qiluvchi lipid fraktsiyalarining (palmitin, olein, linolein) miqdoriy ustunligini baholab, ularni mahsulotning oziqaviy, biologik faol qiymatini hamda energiya manbaini belgilovchi ko'rsatkichlarini aniqlash;

Kurka go'shti tarkibidagi inson salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi omillar – zaharli va kantserogen kimyoviy moddalar, shuningdek mikro- va makroelementlar miqdorini zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlash;

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro savdoda iqtisodiy xavfsizligini, shuningdek ichki bozorini sifatsiz va xavfli parranda go‘shlaridan himoya qila oladigan yangi tovar kod raqamlarini ishlab chiqish;

O‘zbekiston bojxona organlari amaliyotida qo‘llash uchun kurka go‘shining tarkibidagi antibiotiklar miqdorini tezkor va samarali aniqlash usullarini bojxona laboratoriyasi uslubiyotini takomillashtirish;

GOST-31936-2012 “Parranda go‘shiti va oziq-ovqat submahsulotlaridan tayyorlanadigan yarimtayyor mahsulotlar. Umumiy texnik shartlar” talablariga muvofiq kurkaning go‘shidan yarim tayyor parranda mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha texnologik yo‘riqnoma (TY) ishlab chiqish;

Kurka go‘shidan yarim tayyor parranda mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha tashkilot standarti (Ts)ni va unga asosan yaratilgan sertifikatlashtirish mezonlariga muvofiq sertifikatlashtirish jarayonini takomillashtirish maqsadida sinov dasturini ishlab chiqish va uni sertifikatlashtirish mezonlari yaratish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekistonda boqilgan hamda Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston va Germaniya hududlarida yetishtirilib, respublikamizga import qilingan kurka go‘shlari, shuningdek me‘yoriy–texnik hujjatlar to‘plami va O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (2022-yilgi versiyasi) olingan.

Tadqiqotning predmetini O‘zbekiston Respublikasi TIF TNning 0207 tovar pozitsiyasiga kiruvchi kurka go‘shitini tasniflashning iyerarxik va faset usullari hamda tovar ekspertizasi va uning muhim tarkibiy elementlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida organoleptik va kimyoviy usul hamda yuqori samarali gaz-suyuqlik xromatografiya, suyuqlik xromatografiya–mass-spektrometriya (LC-MS/MS) va avio200 (LSP-OES) induktiv bog‘langan plazmali optik emission spektrometriya kabi zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ilk bor ayrim mamlakatlarda yetishtirilgan kurka go‘shiti namunalarining kimyoviy tarkibi (namlik, oqsil, yog‘, uglevod, kul) kimyoviy usullar yordamida o‘rganilib, ularning tarkibiy farqlari aniqlangan hamda bu natijalar ishlab chiqarish sharoiti, oziqlantirish omillari va ekologik muhitning mahsulot sifati hamda oziqaviy qiymatiga ta‘sirini baholovchi ilmiy-amaliy mezonlari aniqlangan;

Turli mamlakatlarda yetishtirilgan kurka go‘shiti namunalarining yog‘ kislotalari tarkibi gaz xromatografiyasi usuli yordamida o‘rganilib, barcha namunalarda palmitin (C16:0), olein (C18:1) va linolein (C18:2) kislotalari miqdori 20% dan yuqori miqdorda ekanligi isbotlangan;

Ayrim mamlakatlarda yetishtirilgan kurka go‘shiti tarkibida inson salomatligi uchun zararli bo‘lgan antibiotiklar va pestitsidlar miqdorining amaldagi me‘yorlardan oshib ketganligi, takomillashtirilgan uslubiy yondashuv asosida aniqlangan;

Turli mamlakatlarda yetishtirilgan kurka go‘shiti namunalari tarkibidagi makro- va mikroelementlar miqdori induktiv bog‘langan plazmali optik emission spektrometriya yordamida aniqlash natijalari ushbu kurka go‘shlari tarkibida inson

salomatligi uchun foydali bo'lgan biogen elementlar miqdori yuqoriligi, shuningdek zararli bo'lgan og'ir metallar qoldiqlari miqdori barcha namunalarda mavjud emasligi isbotlangan;

Ilk bor yangi so'yilgan, sovutilgan va muzlatilgan kurka go'shti namunalarining kimyoviy tarkibi asosida ularni Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi bo'yicha sinflash amaliyoti takomillashtirilib, yangi 4 ta tovar kodlari ishlab chiqilgan;

Mamlakatimizda iste'mol qilinayotgan kurka go'shtining kimyoviy tarkibi belgilangan me'yorlarga muvofiqligini baholash imkonini beruvchi kompleks sinov dasturi ishlab chiqilib, kurka go'shtini sertifikatlashtirish jarayoni takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Kurka go'shti uchun TIF TNdagi 0207 24 hamda 0207 25 subpozitsiya tovar kodlari detallashtirilib, qo'shimcha 4 ta yangi tovar kodlari ishlab chiqilgan;

Kurka go'shti tarkibidagi zaharli va kantserogen kimyoviy moddalar miqdorini aniqlashning tezkor va samarador usuli ishlab chiqilgan;

Kurka go'shtini amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga mosligini baholash maqsadida xalqaro qonunchilik talablari asosida uni kimyoviy tarkibi va tarkibidagi qo'shimcha kimyoviy moddalari asosida muvofiqligini baholash bo'yicha kompleks sinov dasturi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi organoleptik, suyuqlik xromatografiya-mass-spektrometriya, gaz-suyuqlik xromatografiya, Optik emission spektrometriya kabi zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullaridan foydalanib olingani, natijalarning ilmiy nashrlarda e'lon qilinganligi, amaliy natijalarini bojxona organlari faoliyatiga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kurka go'shtining tovar holati va qismlari uchun kimyoviy tarkibi hamda tarkibidagi qo'shimcha kimyoviy moddalar asosida TIF TNga muvofiq tovarlarni tasniflashning ilmiy-uslubiy asoslarini yaratish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sertifikatlashtirish jarayonini takomillashtirish maqsadida, kurka go'shtidan yarim tayyor parranda mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha tashkilot standarti (Ts) hamda kurka go'shti uchun sinov dasturi yaratilganligi, sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlarini taxlil qilish orqali uning ekologik tozaligini aniqlashning tezkor usullari va kurka go'shti uchun TIF TN bo'yicha yangi tovar kodlari ishlab chiqilib, bojxona organlari amaliyotiga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinganligi. TIF TNga muvofiq kurka go'shtining kimyoviy tarkibi va tarkibidagi qo'shimcha kimyoviy moddalariga ko'ra tasniflanishi va sertifikatlanishini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Kurka go'shti va tarkibidagi inson salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi zaharli va kantserogen moddalar asosiy mezon ko'rsatkich sifatida tanlab olinib, TIF TN asosida ishlab chiqilgan 0207 24 100 1, 0207 24 900 1, 0207 25 100 1 hamda 0207

25 900 1 yangi kod raqamlari O‘zbekiston Bojxona qo‘mitasi tomonidan amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasining 2024-yil 20-iyundagi №17/05-24-1185-son ma‘lumotnomasi). Natijada, kurka go‘shining kod raqamlarini to‘g‘ri belgilash orqali mamlakat iqtisodiy xavfsizligini hamda ichki bozorini sifatsiz va xavfli parranda go‘shlaridan himoya qilish va bojxona statistikasini to‘g‘ri yuritish imkonini bergan;

Kurka go‘shiti uchun ishlab chiqilgan kompleks sinov dasturi “O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” Davlat muassasasi va uning hududiy filiallari amaliyotiga joriy qilingan. (“O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” Davlat muassasasining 2024 yil 27 yanvardagi 01-184-son ma‘lumotnomasi). Natijada, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha texnik reglament talabalari asosida sertifikatlash tizimini takomillashtirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyadan o‘tkazish. Mazkur tadqiqot natijalari 20 ta, jumladan, 16 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy–amaliy konferentsiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 28 ta ilmiy ish, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 2 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, maqsad va vazifalari, muhim ahamiyatga ega masalaning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqot usullari, obykti va predmeti, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirish yo‘nalishiga muvofiqligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchiligi asoslangan, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ilmiy ishlar hamda dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kurka go‘shining tavsifi, iste‘mol xususiyatlari va uni tasniflash hamda sertifikatlash”**, deb nomlangan birinchi bobida kurka go‘shiti bozori va uning rivojlanish tendentsiyasi, kurka go‘shining kimyoviy tarkibi, sifat va xavfsizligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘rsatkichlari, TIF TN bo‘yicha kurka go‘shiti tasniflash va sertifikatlash tartibi hamda ularning ayrim muammolari, kurka go‘shiting TIF TN bo‘yicha kod raqamlarini takomillashtirishda 02.00.09 – “Tovarlar kimyosi” ixtisosligining ilmiy amaliy ahamiyati va mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligini hamda ichki bozorini sifatsiz va xavfli parranda tovarlaridan himoya qilishdagi o‘rni tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot obyektlari va kurka go’shtining sifat hamda xavfsizlik ko‘rsatkichlarini aniqlash usullari”**, deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston Respublikasida uy sharoitida o‘rnatilgan tartibda (I) va “Asosiy biznes” MChJ nomli parrandachilik fermer xo‘jaligida (II) boqilgan hamda Rossiya Federatsiyasi, Germaniya va Tojikiston davlatlari hududlarida yetishtirilib respublikamizga import qilingan kurka go’shti tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan.


Kurka go’shtini organoleptik baholash GOST 7702.0 bo‘yicha, antibiotiklarning qoldiq miqdori GOST 35044-2023 bo‘yicha, pestitsidlarning qoldiq miqdori GOST 32308–2013 bo‘yicha, go’sht tarkibidagi yog‘ miqdori GOST 23042–2015 bo‘yicha, makro- va mikroelementlar miqdori GOST 33426–2015 bo‘yicha tahlil qilingan.

Respublikamizda va turli davlatlarda yetishtirilgan kurka go’shtining kimyoviy tarkibini, sifat va xavfsizligini ta’minlovchi ko‘rsatkichlari organoleptik, kimyoviy va zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida tadqiq qilindi. Kurka go’shti tarkibidagi antibiotiklarning qoldiq miqdori yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usuli yordamida, kurka go’shti tarkibidagi makro- va mikroelementlar Avio 200 ICP-OES (Perkin Elmer, USA) Induktiv bog‘langan plazmalı Optik emission spektrometriya usuli bilan aniqlangan. Kurka go’shti tarkibidagi turli pestitsid guruhlari qoldig‘i miqdorini aniqlash Agilent 7890B GC yuqori samarali gaz xromatografiyasida amalga oshirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kurka go’shtini sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlarini tadqiq etish hamda uning xalqaro kod raqamlarini takomillashtirish”**, deb nomlangan uchinchi bobida kurka go’shtini yetishtirish bo‘yicha respublikamizda va jahondagi xolat bayoni, kurka go’shtini kimyoviy tarkibi, sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, uning identifikatsiyalash va tasniflash jarayonini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston bojxona qo‘mitasiga joriy qilingan tezkor va samarali usullarning ilmiy-uslubiy asoslari yoritilgan.

Hozirgi kunda respublikamizda kurka go’shti va uning mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish, kurkachilikni rivojlantirish bo‘yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, respublika aholisini kurka go’shti bilan o‘zini-o‘zi ta’minlash darajasiga yetkazish va sohaning eksport salohiyatiga e’tiborni qaratish, shuningdek kurkachilik sohasidagi xorijiy ilg‘or tajribalarni respublikamizning barcha xududlariga joriy etish maqsadida jadal ishlar amalga oshirilmoqda.

Kurka go’shti dunyoning ko‘plab mamlakatlarida yetishtiriladi va insonlar tomonidan taniq va parhez taom sifatida iste’mol qilinadi. Respublikamizda kurka yetishtiruvchi parranda fermer xo‘jaliklari mavjud bo‘lishiga qaramay, mamlakatimizda kurka go’shtining importi yildan-yilga ortib bormoqda. Respublikamizga import qilingan kurka go’shtining so‘nggi besh yildagi hajmi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasiga import qilingan kurka go‘shining hajmi bo‘yicha ma‘lumot

2019-2023-yillarda O‘zbekistonga import qilingan kurka go‘shni hajmi 5,7 baravar oshgan. Bu esa, ushbu mahsulotga iste‘molchilar tomonidan bo‘lgan talabning sezilarli darajada ortib borayotganini, shuningdek importga bog‘liq bo‘lishlik kelajakda kurka go‘shni yetishtirishni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lamini yanada kengaytirishni rag‘batlantirish muhimligini ko‘rsatadi.

Kurka go‘shining xalqaro savdoda o‘z o‘rniga egaligini hisobga olgan holda uning sifati va xavfsizligini hamda kimyoviy tarkibini belgilovchi omillarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadvalda kurka go‘shni namunalarining kimyoviy tarkibini o‘rganish natijalari keltirilgan.

1-jadval

Kurka go‘shining kimyoviy tarkibi, 100 grammga nisbatan

Kelib chiqishi	Suv (%)	Oqsil (%)	Yog‘ (%)	Uglevodlar (%)	Kul miqdori (%)	Energetik qiymati kkal
Germaniya (korzinka)	74,5	20,8	3,4	0,45	0,9	119
O‘zbekiston (fermer xo‘jaligida)	75,6	19,5	3,1	0,5	1,3	114
O‘zbekiston (uy sharoitida)	78,0	18,1	2,6	0,4	0,9	106
Tojikiston (ch.s.sh.)	75,6	19,2	3,2	0,55	1,4	116
Rossiya Federatsiyasi (korzinka)	73,8	21,5	2,9	0,6	1,2	111

Jadvaldagi ma‘lumotlar turli davlatlarda yetishtirilgan kurka go‘shlari orasidagi kimyoviy tarkibi bo‘yicha farqlarni aniq ko‘rsatadi va har bir go‘shning ozuqaviy qiymatiga va sifat ko‘rsatkichlariga oqsil, yog‘, namlik va kul miqdorlarini ko‘rsatgan ta‘sirini ochib beradi. Jadval ma‘lumotlari kurka go‘shni namunalarida oqsil miqdori yuqori, yog‘ miqdori esa pastroq ekanligini ko‘rsatdi.

Yogʻ kislotalari, lipoprotein kompleksining tarkibiy qismi sifatida, inson organizmi uchun asosiy energiya manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu almashtirib boʻlmaydigan yogʻ kislotalarining manbalaridan biri kurka goʻshti hisoblanadi.

Kurka goʻshti namunalaridagi yogʻ kislotalari tarkibi boʻyicha tadqiqot natijalariga koʻra unda ustunlik qiluvchi yogʻ kislotalari – palmitin, olein va linolein kislotalari boʻlib, ular umumiy yogʻ kislotalar tarkibining 20% dan koʻprogʻini tashkil qiladi.

Kurka goʻshtidagi politoʻyinmagan yogʻ kislotalar miqdorining yuqoriligi uning ozuqaviy qiymatini oshirib, biologik foydaliligini taʼminlasa undagi toʻyingan va monotoʻyinmagan yogʻ kislotalarining nisbatan yuqoriroq miqdori energiya manbai sifatida qadrlanadi.

Shuningdek, kurka goʻshti namunalarining sifat va xavfsizlik koʻrsatkichlarini tadqiq etish maqsadida Optik emission spektrometriya usuli yordamida uning tarkibidagi makro- va mikroelementlar miqdori aniqlandi.

Kurka goʻshti namunalari tarkibida aniqlangan makro- va mikroelementlar miqdorlari boʻyicha barcha tahlil natijalari 2-jadvalda umumlashtirilgan.

2-jadval

Kurka goʻshti namunalari tarkibida aniqlangan makro- va mikroelementlar miqdorlari boʻyicha tahlil natijalari

№	Element nomi (mg/100g)	Oʻzbekiston (f/x)	Tojikiston	Rossiya Federatsiyasi	Germaniya
1.	Li	0,693	0,875	1,255	0,922
2.	Al	0,442	0,475	0,851	1,006
3.	Mo	0,013	0	0	0
4.	Te	0	0	0	0
5.	Se	0	0	0	0
6.	Sb	0	0	0	0
7.	Sn	0	0	0	0
8.	Sr	1,515	1,728	1,653	1,195
9.	K	232,095	105,366	299,262	155,112
10.	Ba	0,096	0	0	
11.	Cr	0	0	0	
12.	Mn	0,023	0,021	0,026	0,017
13.	B	0	0	0	0
14.	Ca	94,054	42,276	49,457	20,189
15.	As	0	0	0	0
16.	Fe	2,474	1,200	2,450	1,232
17.	Na	144,310	70,813	171,702	73,302
18.	Pb	0	0	0	0
19.	Cd	0	0	0	0
20.	V	0	0,016	0	0,002
21.	Zn	3,032	0,866	3,333	0,297
22.	Cu	1,078	0,580	1,323	0,624

23.	Ag	0	0	0	0
24.	Hg	0	0	0	0
25.	Co	0,020	0,034	0,040	0,051
26.	Ni	0	0	0	0
27.	P	151,317	68,478	152,995	108,993
28.	Si	7,840	1,693	6,481	3,891
29.	S	380,3	258,9	755,3	352,5
30.	Mg	25,553	23,025	29,831	20,926


Tahlil natijalariga ko‘ra, **qo‘rg‘oshin (Pb), kadmiy (Cd), simob (Hg), mishyak (As), nikel (Ni), surma (Sb), qalay (Sn) va kumush (Ag)** kabi og‘ir metallar barcha namunalarda **aniqlanmagan**. Shu bilan birga, kurka go‘shni namunalarda “Go‘sh va go‘sh mahsulotlarining xavfsizligi to‘g‘risida”gi UTRda ruxsat etilgan me‘yordan oshmagan miqdorda Mn va Cu elementlari aniqlandi.

Shunday qilib, olingan tahlil natijalari kurka go‘shni namunalari amaldagi me‘yoriy hujjatlar talablariga, jumladan, kimyoviy elementlarning mezonlari tarkibiga to‘liq mos kelishini ko‘rsatdi.

Shuningdek, kurka go‘shni namunalari turli guruh tutgan pestitsidlar qoldiqlari gaz-xromagrafiya-mass spektrometriya (GC-MS) usuli yordamida tadqiq qilindi. Bu usul yuqori sezgirlik va aniqlik bilan pestitsidlarni identifikatsiya qilish imkonini beradi. Olingan xromatogramma tahlili natijalari amaldagi tartibga soluvchi me‘yoriy hujjatlar asosida tahlil qilindi.

Xromatogrammalarda tahlil natijalari pestitsid guruhlarining turli mintaqalarda yetishtirilgan kurka go‘shni namunalari tarkibida turlicha kontsentratsiyaga ega ekanligini ko‘rsatdi.

2-rasmda O‘zbekistonda uy sharoitida o‘rnatilgan tartibda boqilgan kurka go‘shni bo‘yicha olingan xromatogramma tahlili va tarkibidagi pestitsidlar miqdori (3-jadval) hamda 3-rasmda Tojikistonda yetishtirilgan kurka go‘shni bo‘yicha olingan xromatogramma tahlili va tarkibidagi pestitsidlar miqdori (4-jadval) keltirilgan.




2-rasm. O‘zbekistonda uy sharoitida boqilgan kurka go‘shni namunasi tarkibidagi pestitsidlar miqdori

O‘zbekistonda uy sharoitida boqilgan kurka go‘shiti namunasi tarkibidagi pestitsid guruhlari qoldiqlarining miqdorlari

№	Modda	RT (min)	Maydon (nisbiy birliklar)	Konsentratsiya (mkg/L)	Konsentratsiya (mg/kg)	Me‘yor (mg/kg)	Ortiqcha miqdor (mg/kg)	Me‘yor Mosligi
1.	Aldrin	6.53	0.655	0.0	0.000	0.01	-0.010	Muvofiq
2.	BHC, alpha	6.89	0.015	1.0	0.001	0.10	-0.099	Muvofiq
3.	BHC, beta	7.01	0.004	1.0	0.001	0.10	-0.099	Muvofiq
4.	BHC, gamma (Lindane)	7.01	0.004	1.0	0.001	0.10	-0.099	Muvofiq
5.	DDD p,p	11.05	5.639	71.0	0.071	0.10	-0.029	Muvofiq
6.	DDE p,p	10.30	3.001	56.0	0.056	0.10	-0.044	Muvofiq
7.	DDT p,p	11.61	9.878	9.0	0.009	0.10	-0.091	Muvofiq
8.	Heptachlor	8.56	0.653	0.653	0.000653	0.01	-0.009347	Muvofiq
9.	Hexachloro-benzene	6.68	76.383	76.383	0.076383	0.2	-0.123617	Muvofiq

Tahlil natijalari, uy sharoitida boqilgan kurka go‘shiti namunasidagi pestitsid qoldiqlari ruxsat etilgan me‘yorlardan oshmaganligini, ya‘ni mahsulot amaldagi me‘yoriy hujjatlar talablariga mosligini ko‘rsatdi.



3 -rasm. Tojikiston Respublikasida yetishtirilgan kurka go‘shiti tarkibidagi pestitsidlar miqdori

Tojikistonda yetishtirilgan kurka go‘shiti namunasi tarkibidagi pestitsid guruhlari qoldiqlarining miqdori

№	Modda	RT (min)	Maydon (nisbiy birliklar)	Konsentratsiya (mkg/L)	Konsentratsiya (mg/kg)	Me‘yor (mg/kg)	Ortiqcha miqdor (mg/kg)	Me‘yor Mosligi
1.	Aldrin	-	-	-	-	-	-	Muvofiq
2.	BHC, alpha	6.92	20.834	593.0	0.593	0.10	+0.493	Nomuvofiq
3.	BHC, beta	7.02	9.101	541.0	0.541	0.10	+0.441	Nomuvofiq
4.	BHC, gamma (Lindane)	7.02	9.101	541.0	0.541	0.10	+0.441	Nomuvofiq
5.	DDD p,p	11.03	69.776	1105.0	1.105	0.10	+1.005	Nomuvofiq
6.	DDE p,p	10.30	114.613	2174.0	2.174	0.10	+2.074	Nomuvofiq
7.	DDT p,p	11.61	23.994	97.0	0.097	0.10	-0.003	Mos
8.	Heptachlor	8.50	3.225	3.225	0.003225	0.01	-0.006775	Muvofiq
9.	Hexachloro-benzene	6.67	84.128	84.128	0.084128	0.2	-0.115872	Muvofiq



Tojikiston Respublikasida yetishtirilgan kurka go'shti tarkibida ayrim pestitsid guruhlari ruxsat etilgan me'yorlardan sezilarli darajada oshib ketgan. BHC (alpha, beta, gamma) me'yor (0,10 mg/kg)dan 5,4-6,0 marta yuqori, DDD p,p: me'yor (0,10 mg/kg)dan 11 marta yuqori, DDE p,p: me'yor (0,10 mg/kg)dan 28 marta yuqori bo'lib, bu mahsulot xavfsizligi nuqtai nazaridan muhim masala hisoblanadi. Ayrim DDT p,p; Heptachlor va Hexachlorobenzene ruxsat etilgan chegaralar doirasidan chiqmagan.


Shuningdek, O'zbekistonda parranda fermer xo'jaligida yetishtilgan kurka go'shti tarkibidagi ayrim pestitsid guruhlari ruxsat etilgan me'yorlardan sezilarli darajada oshgan, BHC (alpha, beta, gamma): me'yor (0.1 mg/kg) dan 5-9 baravar yuqori, DDD p,p: me'yor (0.1 mg/kg) dan 13.7 marta yuqori, DDE p,p: me'yor (0.1 mg/kg) dan 26.75 marta yuqori bo'lib, bu esa iste'molchilar sog'ligi uchun jiddiy xavf tug'diradi. Aldrin, DDT p,p, Heptachlor, Hexachlorobenzene ruxsat etilgan me'yorlar talabida.

Rossiya Federatsiyasida yetishtirilgan kurka go'shti tarkibida ayrim pestitsid guruhlari ruxsat etilgan me'yordan ancha oshgan. BHC (alpha, beta, gamma): me'yor (0,10 mg/kg)dan 6-8 baravar yuqori, DDD p,p: me'yor (0,10 mg/kg)dan 13,5 marotaba yuqori, DDE p,p: (0,10 mg/kg)dan 27,7 marotaba yuqori bo'lib, bu iste'molchilar salomatligi uchun jiddiy xavf ekanligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, tahlil natijalari (O'zbekistonda uy sharoitida boqilgandan tashqari) asosida O'zbekistonda fermer xo'jaligida yetishtirilgan hamda Rossiya Federatsiyasi va Tojikiston Respublikasidan import qilingan kurka go'shtlarining tarkibidagi pestitsidlarning ba'zi bir guruhlari miqdori me'yorlardan ortiq bo'lib, xavfsizlik ko'rsatkichlari bo'yicha amaldagi me'yoriy hujjatlari talablariga mos emasligini ko'rsatdi.

Kurka go'shti tarkibidagi antibiotik qoldiqlari suyuqlik xromatografiya-mass-spektriometriya (LC-MS/MS) usuli yordamida o'rganilib, uning uchta nomdagi antibiotik: *Benzilpenitsillin*, *Tetratsiklin* va *Batsitratsin* - qoldiqlari tahlil qilindi. Bunda tadqiq qilingan namunalar xromatogrammalari (4-va 5-rasmlar) standart namunalari bilan solishtirildi.




<p>Compound Name: Benzilpenicilin Sample Name: Go'sht (Uzbekistan)</p> 	<p>Benzilpenitsillin:</p> <ul style="list-style-type: none"> To'lqin uzunligi: 297.1 > 249.1 nm. Retensiya vaqti: 2.61 daqiqa. Signal maydoni: 2.674e+002 Konsentratsiya (ppb): aniqlanmadi.
<p>Compound Name: Tetracycline Sample Name: Go'sht (Uzbekistan)</p> 	<p>Tetratsiklin:</p> <ul style="list-style-type: none"> To'lqin uzunligi: 331.2 > 257.1 nm. Retensiya vaqti: 4.13 daqiqa. Signal balandligi: 685,130. Signal maydoni: 179,495.31. Konsentratsiya (ppb): 41.211.

<p>Compound Name: Bacitracin Sample Name: Go'sht (Uzbekistan)</p> 	<p>Batsitratsin:</p> <ul style="list-style-type: none"> To'liq uzunligi: 706.1 > 335.4 nm. Retensiya vaqti: 5.35 daqiqa. Signal soni: 705.9. Maydon: 4.689e+003. Konsentratsiya (ppb): Aniqlanmadi.
---	--

1 ppb = 0,001 mikrogramm/kg

4-rasm. O'zbekistonda parrandachilik fermer xo'jaligida yetishtirilgan kurka go'shti namunasining xromatogrammasi

Tetratsiklinning go'shtdagi qoldiq miqdori 41.211 ppb (0.041211 mg/kg)ni tashkil etgan. Bu miqdor amaldagi me'yoriy hujjat talablarida ruxsat etilgan miqdor (< 0.01 mg/kg) bilan solishtirilganda me'yoriy cheklolardan ancha yuqori ekanligi ko'rinmoqda. Shu sababli, bu miqdor go'shtning iste'mol uchun xavfli ekanligini ko'rsatadi.

<p>Compound Name: Benzilpenicilin Sample Name: Go'sht (Germaniya)</p> 	<p>Benzilpenitsillin:</p> <p>Retensiya vaqti: 4.05 daqiqa. Signal soni: 460. Signal maydoni: 4610.00. Konsentratsiya (ppb): Aniqlanmadi lekin signal mavjud.</p>
<p>Compound Name: Tetracycline Sample Name: Go'sht (Germaniya)</p> 	<p>Tetratsiklin:</p> <p>Retensiya vaqti: 4.20 daqiqa. Signal soni: 957.00. Signal maydoni: 9.567e+002. Konsentratsiya (ppb): Aniqlanmadi, lekin signal mavjud.</p>
<p>Compound Name: Bacitracin Sample Name: Go'sht (Germaniya)</p> 	<p>Batsitratsin:</p> <p>Retensiya vaqti: 5.37 daqiqa. Signal soni: 712.4. Signal maydoni: 4.466e+003. Konsentratsiya (ppb): Aniqlanmadi, lekin signal mavjud.</p>

5-rasm. Germaniyada yetishtirilgan kurka go'shti namunasining xromatogrammasi

Germaniyada yetishtirilgan kurka go'shti tarkibidagi Benzilpenitsillin, Tetratsiklin va Batsitratsin antibiotik qoldiqlari aniqlanmagan, ammo ularning signallari mavjudligini ko'rsatdi. Ushbu natija Germaniyani parranda yetishtirishda Yevropa Ittifoqi standartlari va Alimentarius kodeksi talablariga qat'iy rioya qilishini, bu esa antibiotik qoldiqlarini juda past darajada bo'lishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, tahlil natijalariga (Germaniyadan tashqari) ko'ra kurka go'shtini yetishtirish jarayonida antibiotiklar samaradorlikni oshiruvchi muhim

vosita bo'lsa-da, O'zbekistonda fermer xo'jaligida boqilgan hamda Rossiya federatsiyasi va Tojikistonda yetishtirilib import qilingan kurka go'shtlarining tarkibidagi ba'zi bir antibiotik qoldiqlarining me'yordan ortiq qo'llanilishi iste'molchi uchun xavfli ekanligini ko'rsatdi. Shu sababli, ishlab chiqaruvchi subyektlar ushbu antibiotiklarni meyyorida qo'llashlari va bioxavfsizlik choralarini kuchaytirishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kurka go'shti O'zbekiston Respublikasining TIF TNga muvofiq 0207 tovar pozitsiyasida joylashgan bo'lib, unga ishlov berish bilan bog'liq omillar turlicha bo'lishidan qat'iy nazar, u tovar kodi bo'yicha bojxona rasmiylashtiruvda Bojxona yuk deklaratsiyasining 33-grafasida keltirilgan. Kurka go'shtining ishlov berish xususiyatlarini inobatga olgan holda TIF TNdagi kod raqamini uning sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari asosida, asosiy talqin qoidalari yordamida, iyerarxiya va faset usullarini qo'llagan holda qo'shimcha detallashtirilib, yanada aniqroq tasniflasak, natijada bu bilan zaharli va kanserogenli kimyoviy birikmalarsiz hamda texnogen ta'sirlarsiz kurka go'shtini sinflash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Yuqoridagi ilmiy natijalarga asoslangan holda turli mintaqalarda yetishtirilgan kurka go'shti uchun O'zbekiston Bojxona qo'mitasining Markaziy bojxona laboratoriyasi rahbariyatiga O'zbekiston Respublikasi TIF TNga quyidagi yangi kod raqamlarini kiritish taklif etilgan (6-jadval).

6-jadval

Kurka go'shti uchun taklif etilayotgan yangi TIF TN kod raqamlari

Amaldagi TIF TN kod raqamlari	Tovarning nomlanish matni	Tavsiya etilayotgan TIF TN kod raqamlari
0207	0105 tovar pozitsiyasida ko'rsatilgan yangi so'yilgan, sovutilgan yoki muzlatilgan uy parrandalarining go'shti va oziq-ovqat submahsulotlari:	
	- kurkalarning:	
0207 24	- - bo'laklarga bo'linmagan, yangi so'yilgan yoki sovutilgan:	
0207 24 100	- - - "80% lik kurka" sifatida keltirilgan pati yulingan, ichak-chavoqsiz boshsiz va panjalarsiz, lekin bo'yin yurak, jigar va mushakli oshqozon bilan	
